


Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 10568,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 98,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (95,3 %)ni tashkil etdi.



B–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, *C*-Ishlab chiqaradigan sanoat *D*-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, *E*-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 19,4 % ga hamda suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning - 7,9 % ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 142,8 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oltinugurt , t.	753,0	673,0	-80,0
Shagʻal , t.	29711,0	0	-29711,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari, mln. soʻm.	105606,5	79474,9	-26131,6

Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10070,4 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,8 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 55,6 % (58,9 %) va quyi texnologiyalisi – 42,5 % (39,2 %) ni tashkil etdi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 44,1 % (2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 92,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,1 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 111,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,2 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 106,2 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,7 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 107,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2021- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 500,4 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 4,3 % ga o'sgan), 13,8 ming tonna kalava ip (13,9 %), 1033,7 ming litr aroq mahsulotlari (41,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg'isi




Avtomobil benzini



Mazut



O'simlik yog'i (tozalangan)




Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa




Yumshoq bug'doy va spelta uni



Likyorlar




Aroq




Uzum vinosi




Paxta linti



Paxta chigiti




Paxta tolasi



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Mazut, ming t.	56,8	47,9	-8,9
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	8167,7	7316,8	-850,9
Paxta,tolasi, t.	57637,6	51237,0	-6400,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	54096,4	50291,5	-3804,9
Quyish uchun tayyor beton,t.	20389,9	4537,0	-15852,9
Avtomobil benzini,ming t.	479,9	500,4	-20,5
Paxta chigiti, t.	88925,8	74714,0	-14211,8
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	12356,0	17385,9	5029,9
Dizel yoqilg'isi, ming t.	374,5	244,6	-129,9

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish
(2021- yil yanvar-iyul)




To'qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-iyul)

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,9% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 117,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,1 % ni, fizik hajm indeksi 11,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2339,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-iyul)

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,7 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1812,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-iyul)


Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning sanoat tarkibidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 605,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-iyul)


Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ushbu yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, shu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 43,8 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 219,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-iyul oylarida

mlrd.
so'm



FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 266,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ini) tashkil etdi.


2021- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da

2020- y.




2021- y.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3,7	4,4	0,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	490,6	510,3	19,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 88,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	5375,2	10713,5	5338,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	263,6	284,3	20,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 99,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4335,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga oshdi, uning jami sanoatdagi ulushi 41,0 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,4 % (2020- yil yanvar-iyul oylarida 1,8 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 20,2 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 18,9% ni, G'ijduvon tumani 11,5 % ni, Jondor tumani 8,1 % ni, Kogon tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (118,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon (166,5 %), Olot (150,7 %) tumanlarida, Buxoro shahri (138,2 %) va Jondor (125,3 %) hamda Shofirkon (125,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-iyul oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	4335,9	100,0	118,2
Buxoro viloyati			
	134,6	3,1	150,7
Olot			
	156,6	3,6	112,6
Peshku			
	201,9	4,7	100,2
Buxoro			
	211,9	4,9	123,6
Romitan			
	185,8	4,3	103,9
Vobkent			
	353,4	8,1	125,3
Jondor			
	500,7	11,5	110,7
G'ijduvon			
	225,5	5,2	125,1
Shofirkon			
	301,6	7,0	166,5
Kogon			
	818,3	18,9	138,2
Buxoro sh.			
	179,6	4,1	103,1
Qorako'l			
	191,2	4,4	104,7
Kogon sh.			
	874,8	20,2	103,8
Qorovulbozor			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 31,2 % ni, shuningdek Buxoro shahri 19,2 % ni, G'ijduvon tumani 11,3 % ni hamda Kogon tumani 6,1 %, Romitan tumani 5,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Buxoro shahri (160,9 %), Olot (142,0 %), Jondor (134,6 %) va Romitan (134,3 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-iyul oylarida

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	2768,0	100,0	121,1
Buxoro viloyati			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	79,4	2,9	142,0
Olot			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	99,0	3,6	104,5
Buxoro			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	132,6	4,8	117,3
Vobkent			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	312,3	11,3	123,7
G'ijduvon			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	168,4	6,1	128,4
Kogon			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	55,2	2,0	95,1
Qorako'l			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	863,7	31,2	105,4
Qorovulbozor			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	71,0	2,5	94,9
Peshku			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	143,1	5,2	134,3
Romitan			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	118,7	4,3	134,6
Jondor			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	115,5	4,1	131,8
Shofirkon			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	531,7	19,2	160,9
Buxoro sh.			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	77,4	2,8	106,1
Kogon sh.			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 18,3 % ni, shuningdek, Jondor tumani 15,0 % ni, G'ijduvon tumani 12,0 % ni, Kogon tumani 8,5 %, Qorako'l tumani 7,9 % tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Kogon tumanida (2,7 m.), Olot tumanida (165,3 %) hamda Peshku tumanida (133,4 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-iyul oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1567,9	100,0	113,4				
Buxoro viloyati							
	55,2	3,5	165,3		85,6	5,4	133,4
Olot				Peshku			
	102,9	6,6	96,3		68,8	4,4	106,0
Buxoro				Romitan			
	53,2	3,4	81,0		234,7	15,0	121,0
Vobkent				Jondor			
	188,4	12,0	94,3		110,0	7,0	118,8
G'ijduvon				Shofirkon			
	133,2	8,5	2,7 m.		286,6	18,3	109,6
Kogon				Buxoro sh.			
	124,4	7,9	107,1		113,8	7,3	103,8
Qorako'l				Kogon sh.			
	11,1	0,7	47,5				
Qorovulbozor							

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yilning yanvar-iyul oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1004,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.


Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

2021- yil yanvar-iyul oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	10568,2	100,0	98,4
Buxoro viloyati *			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	287,7	2,7	107,6
Olot			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	241,6	2,3	107,3
Peshku			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	216,2	2,0	102,6
Buxoro			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	631,6	6,0	101,5
Romitan			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	208,4	2,0	101,7
Vobkent			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	436,5	4,1	107,3
Jondor			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	751,7	7,1	102,0
G'ijduvon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	333,0	3,2	110,3
Shofirkon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	571,6	5,4	115,4
Kogon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1323,4	12,5	105,6
Buxoro sh.			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	305,5	2,9	100,6
Qorako'l			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	464,4	4,4	103,3
Kogon sh.			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	4796,6	45,4	94,9
Qorovulbozor			

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kogon tumanida (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 115,4 %), Shofirkon tumanida (110,3 %), Olot (107,6 %) va Peshku (107,3 %) tumanida sezilarli darajada oshdi.

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayish omili bolib Qorovulbozor (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 94,9 %) tumanida ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi kuzatildi.

Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,4 % i), Buxoro shahri (12,5 %), G'ijduvon tumani (7,1 %), Romitan tumani (6,0 %), Kogon tumani (5,4 %) hamda Kogon shahri (4,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Vobkent (2,0 %) hamda Buxoro (2,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (257535,6 ming so'm), Kogon shahri (7524,2 ming so'm) va Kogon tumani (7168,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5411,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2220,4 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 46969,4 ming so'mni, Kogon tumanida – 3782,6 ming so'mni, Kogon shahrida – 3098,6 ming so'mni, Buxoro shahrida 2902,8 ming so'mni tashkil etdi.


**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**


2021- yil yanvar-iyul, ming so'm


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	5411,9	2220,4
Buxoro viloyati		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2867,4	1341,8
Olot		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1933,5	1253,7
Peshku		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1275,5	1190,7
Buxoro		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	4377,3	1468,8
Romitan		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1470,2	1310,9
Vobkent		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2465,9	1996,3
Jondor		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2440,4	1625,5
G'ijduvon		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1856,0	1256,9
Shofirkon		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	7168,7	3782,6
Kogon		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	4694,8	2902,8
Buxoro sh.		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1846,1	1085,0
Qorako'l		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	7524,2	3098,6
Kogon sh.		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	257535,6	46969,4
Qorovulbozor		

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2021- yil yanvar-iyul, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3744,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,4 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jondor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Vobkent (99,8 %), Buxoro (99,6 %), Kogon (98,6 %), hamda Shofirkon (82,5 %) tumanlarida kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,2 %) va Kogon shahri (36,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4786 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1304 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,2 % i) Buxoro shahriga, 607 tasi (12,7 % i) G'ijduvon tumaniga, 376 tasi (7,9 % i) Buxoro tumaniga, 366 tasi (7,6 % i) Kogon tumaniga, 337 tasi (7,0 % i) Jondor tumaniga, 326 tasi (6,8 % i) Romitan tumaniga, 307 tasi (6,4 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 723 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 131 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,1 %) Buxoro shahrida, 106 tasi (14,7 %) G'ijduvon tumanida, 68 tasi (9,4 %) Shofirkon tumanida, 59 tasi (8,2 %) Buxoro tumanida, 58 tasi (8,0 %) Romitan tumanida tashkil etildi.